

ALISHER NAVOIY IJODIDA TA’LIM VA TARBIYANING
MUSHTARAKLIGI

Marvarid Nurbayeva Tavakkalovna

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi 2-kurs

maqsadli tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushba maqolada hazrat Navoiyning ijodida mahorat bilan ifoda etilgan insoniylik g‘oyalari, ta’lim-tarbiyaning nechog‘lik dolzarbligi, yoshlarni tarbiyalashdagi asosiy masalalar, kishi bilimga ega bo‘lishi uchun oz-ozdan o‘rganib borishi lozimligi, insonni komillikka erishish yo‘llari, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: Sharqona ta’lim, ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, tafakkur sohibi, chuqur falsafiy mushohada, millatlararo hamjihatlik.

Zamonaviy texnologiyalar asri bo‘lgan bugungi kunda ta’lim-tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Lekin tarbiya masalasi sharq xalqlarida doimo yetakchilik qilgan va o‘z qiymatini hech yo‘qotmagan. Sharqona ta’lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o‘ringa ega. Sharq madaniyatida ta’lim-tarbiya masalalari yoritilgan didaktik ruhdagi asarlar Mir Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liqdir. Navoiy o‘z asarlarida axloqiy qarashlarini yaxshi fazilatlar bilan birga yomon illatlarni ham ko‘rsatish orqali ifoda etadi. Uning nazdida insoniylik yaxshi g‘oyalarga amal qilish va uni targ‘ib etish bilan bog‘liqdir, turli illatlar esa odamni insoniylikdan uzoqlashtiradi.

O‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkiri, ma’rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e’tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo‘lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsin debon

Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami –

Kim kuchuk birla xo‘tukka necha qilsang tarbiyat,

It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmas aslo odami [1].

Darhaqiqat, jonzotlar orasida faqat insongina ta’lim-tarbiyasi tufayli barcha mahluqotlardan ajralib turadi. Biroq unda yoshlik davridanoq yovuzlik, adovat, hasad, tuhmatchilik va yolg‘onchilik kabi illatlar shakllansa, uni har qancha tarbiya qilgan bilan bartaraf etib bo‘lmaydi. Zero, tarbiya insondagi o‘zgarmas xislatlardandir. Tarbiyani inson dunyoga kelishi bilanoq, balki ona qornidaligidanoq boshlamoq zarur ekanligini g‘azal mulkning sultoni Alisher Navoiy mahorat bilan yuqoridagi misralarda ifoda etgan. Shuningdek, Navoiy faqat ta’limotlar orqali insonga ta’sir etib bo‘lmasligini yaxshi biladi. Ba’zan insonga yomon xulqli va badfe’llar davrasida bo‘lmoqlik ham yaxshi ta’sir ko‘rsatishi aytib o‘tiladi. Negaki inson faqat yaxshi muhitda yashasa, yaxshilar qadriga yetmasligi mumkin. Navoiy

asarlaridan yaxshilarga alohida hurmat e‘tibor ko‘rsatish, shu bilan birga badfe‘l odamlar bilan ham murosaga kelishlik insonga xos fazilat ekanligini tushunish mumkin.

Ma‘lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so‘zining ma‘nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lgan kishi, demakdir. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do‘st va dushmanlik, diyonat va xiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e‘tiborga molikdir.

*Nafsing etsa sho‘xlug‘, charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib [2].*

Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridan olingan mazkur misrada bolaga yoshligidanoq yetarli va to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya berish kerakligi, bu qanchalik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, “Devoni foniy” da shunday misralar keltiriladi:

*Ba piri, ey javon, gar davlati ayn ul-yaqin hoqi,
G‘ubori rohi piron to‘tiyo kun dar javoniho [3].*

Ya‘ni, ey yigit, qariganda asl haqiqat gavharini topishni istasang, yoshlikda ulug‘lar izi tuprog‘ini ko‘zingga to‘tiyo qil.

Darhaqiqat, yaxshi xulqlilar bilan birga bo‘lish, ular suhbatidan o‘rganish insonni komillikka erishtiradi.

Navoiy asarlari orqali hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan ijtimoiy masalalarga mohirona yondoshgan tarbiya, ta‘lim masalasidagi yetakchi muammolardan biri bu millatlararo hamjihatlik masalasi ekanligini yaxshi bilgan. O‘rta asrlarda mahorat va odillik bilan qayd etib o‘tilgan mazkur muammo, bugungi kunda yetakchilik qilmoqda. [4]

Alisher Navoiy turli xalq va millat vakillarini samimiyat bilan sevadi, ularni hurmat qiladi. Uning qaysi bir asarini misol qilib olmang, turli xalq vakillari obraziga ro‘paro kelasiz, unda ularning do‘stlik, birodarlik g‘oyalari jo‘shqin ifoda etilganini ko‘rasiz:

*Ko‘ngulni olsa malohat bila tafovut yo‘q,
Xitoy o‘lsinu yo armani va yo hindu...
Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab
Menga lo‘li bila hindu, anga qo‘ng‘irotu qiyot [5].*

kabi misralarda u xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, tengma-teng qo‘yuvchi belgilarga diqqatini jalb etadi hamda insonni irqi, elati, etiqodiga qarab, unga turlicha munosabatda bo‘lish kabi yomon illatlarga qarshi kurashadi.

Hozirgi biz yashayotgan davrda ba’zi xalqlar, davlatlar va millatlar orasida uchrayotgan turli mojarolar, birodarkushlik urushlarining oldini olish, xalqlarni hamjihatlikka chorlash g‘oyalari shoir oldindan bashorat qilgandek tuyuladi.

Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalalariga fikrlarida insonparvarlik g‘oyalari asosiy o‘rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o‘z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U insoniyatga xos bo‘lgan umuminsoniylik axloq qoidalarini o‘rgandi, o‘zi yaratgan qahramonlari obrazida o‘z qarashlarini ifoda ettirdi. “Xamsa” dagi Farhod, Shirin, Shopur, Qays, Layli, Dilorom kabi obrazi fikrimizning yorqin dalilidir.

Buyuk alloma umri davomida ilm-ma’rifatni yuksak qadrlagan va homiylik qilgan. Shoir insonning ma’naviy kamolotini, eng avvalo, uning ilm va hunar sohibi bo‘la olganligida, deb biladi. U ilmga o‘zidan o‘zi erishib bo‘lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga erisha oladi, deb ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma’no mujassamdir. Ularda ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o‘rinni egallaydi. Masalan:

*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur. [2]*

Alloma kishi bilimga ega bo‘lishi uchun oz-ozdan o‘rganib borishi lozimligini, bilimlari yig‘ilib insonni komillikka erishishini ta’minlashini uqtiradi. Buni tomchi-tomchi suvlar yig‘ilib, daryoga aylanishiga o‘xshatadi.

*Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila. [2]*

Navoiy ushbu misralarida birinchi ustoz tolibiga savod chiqarishda ko‘maklashadi, bu bilan uning hayot yo‘lini belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to‘lay olmaslikni bayon qiladi.

Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma’rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi.

Buyuk so‘z san’atkori va mutafakkiri o‘zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalaniq qolmasdan, balki “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag‘ishlaydi.

“Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta’limiy dostonidir. Navoiy bu asarida o‘zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kishilarga

ta’lim va o‘g‘it berish masalalariga katta e’tibor beradi. Dostonda zolim hukmdorlarni qoralab, ikkiyuzlamachi, riyokor ruhoniylarning sir-asrorlarini keskin fosh etadi. Xususan, shoir saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo‘ylik va to‘g‘rilik, ilmning foydasi va kambag‘al o‘quvchilarning bu yo‘lda chekkan azoblari haqida batafsil to‘xtalib o‘tadi.

“Hayrat ul-abror” asarining bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi.

Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o‘stirish, o‘qitish va voyaga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil ta’kidlab o‘tadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta’riflaydi:

*Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a...
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh [1]*

“Hayrat ul-abror”ning o‘ninchi maqoloti rostgo‘ylik, halollik va to‘g‘rilikka bag‘ishlangan. Navoiy unda kishilarni rostgo‘y va to‘g‘ri bo‘lishga undaydi, yolg‘onchilik va egrilikning zararli oqibatlarini keskin tanqid etadi. Shoir yolg‘on so‘zlashning yomon oqibatini “Sher bilan Durroj” masalida ovchining tuzog‘iga tushgan Durroj timsolida hikoya qiladi [1].

Dostonning o‘n birinchi maqolotida Navoiy ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi. Kishilarni ilm olishga, olimlarni izzatg‘hurmat qilishga chaqiradi. Shu bilan birga, shoir o‘sha davrda mehnatkash va musofir talabalarning ilm olish yo‘lida chekkan mashaqqatlaridan, ilm-fan egalarining muhtojlikda yashaganlaridan afsus-nadomatlar chekadi.

Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta’kidlaydi:

*Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Endiki ilm o‘ldi amal aylagil. [1]*

Navoiy yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralashi, oliyjanob insoniy fazilatlarni qadrlashi, bolalarni o‘qish, o‘rganish va yuksak odobli, a’lo xulqli bo‘lishga chaqirishi katta ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar adabiyotining shakllanishida juda muhimdir. Uning bir qator axloqiy-ta’limiy qarashlari hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda.

“Farhod va Shirin” dostonida shoir chin sevgi va vafu, do‘stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g‘oyalarini tarannum

etadi. Doston yoshlar va bolalarga atab yozilmagan, lekin asarning ko‘pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag‘ishlangandir. Shoir dostonida Farhodning bolalik chog‘laridanoq ilm-hunarga, mehnatga bo‘lgan muhabbatini zo‘r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlagan. Bu Navoiyning bola tarbiyasiga va uning bilim olishiga katta e‘tibor bilan qaraganligini ko‘rsatadi.

Navoiyning nafaqat boy ijodi, balki sermazmun hayoti ham barcha uchun birdek namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi hammaga barobar o‘rnak bo‘lishi lozim.

Uning so‘nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yo‘nalishida yozilgan “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) dir. Bu asar 1500-yilda yozilgan. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa‘diyning “Guliston”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Aruzi Samarqandiyning “Chor maqola” kabi asarlari qatorida turadi. «Mahbub ul-qulub» asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko‘rgan-kechirganlarini teran tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma‘naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo‘lgan hayotiy muammolarga eng to‘g‘ri yechimlarni ta’sirli usulda berishi bilan yuksak daraja kasb etadi.

Navoiy bu asarida sabr, qanoat, kamtarinlik (Muqbil va Mudbir), vafo, hayo, karam (muruvvat), saxovat, himmat, oliyjanoblik, mardlik, hilm (muloyim tabiatlilik), do‘stlik, ilmga amal qilish, shirinso‘zlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni ulug‘laydi, aksincha, baxillik, badfe‘llik, hasadgo‘ylik, chaqimchilik, xasislik, yolg‘onchilik, tamagirlik, nodonlik (bilimsizlik), takabburlik, mayxo‘rlik (badmastlik), badnafslilik (ochko‘zlik) kabi yomon illatlarni qattiq qoralaydi [4]:

Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar.

Ko‘p so‘zlovchi – zeriktiruvchi. Kishi aybini gapiruvchi – o‘ziga yomonlik sog‘inuvchi (birovlarning aybini izlashdan ko‘ra, odam o‘z ayblarini topib, ulardan qutulishi oqillikdir, demoqchi bo‘ladi shoir).

Aqlli odam yolg‘on gapirmas, ammo barcha rost gaplarni aytaverish ham to‘g‘ri emas”.

Navoiy xushmuomala, ochiq yuzli odamlarni maqtaydi:

Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so‘zidan el-yurtga xurramlik.

Tilini tiyolgan odam – donishmand, oqil. So‘ziga erk bergan (ko‘p vaysagan) odam – beandisha va pastkash.

Yolg‘onchi haq oldida gunohkor, xalq oldida sharmanda.

Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz”.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy asarlarida ta‘lim va tarbiyaning bunday mushtarak nuqtalarini ko‘plab guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu hol shoirning aynan ta‘lim-tarbiya borasida ham nasihatimiz mav‘izalar

bitganligidan darak beradi. Bunday ruhdagi mav’izalar kitobxonga ulkan ma’naviy ozuqa berishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror, MAT., 7-jild. – T. 1991.
2. Alisher Navoiy. Hikmatlar. O‘zbekiston. – T. 2011.
3. Alisher Navoiy. MAT., – T. 1991.
4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Fan. – T. 2007.
5. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. Akadem.nashr. – T. 2011.